

**O`zbekiston Respublikasi**  
**Davlat statistika qo`mitasi markaziy apparati xodimlari o`rtasida**  
**O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti**  
**va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarini**  
**o`rganish soatlari to`g`risida ma`lumot**

Tadbir davomida ishtirokchilarga ma`ruzachi tomonidan Huquqiy nigilizm to`g`risida, uning jamiyatning asosiy muammolaridan biri ekanligi, belgilari, ko`rinishlari, vujudga kelishi sabablari, ularni bartaraf etish usullari to`g`risida batafsil ma`lumot berdi.

Dastlab ma`ruzachi tomonidan nigilizmga ta`rif berar ekan, u lotincha “hech narsa”, “hech nima” ma`noni anglatishi, jamiyatning axloqiy, ma`naviy norma va ustunlari, tarixiy hamda madaniy qadryatlarini inkor etishi deb tushuntirish berib o`tdi. Huquqiy nigilizm tarkibiy qismi uchga bo`linishi, ya`ni, davlat va huquqqa nisbatan tanqidiy munosabatda bo`lishi, huquqni jamiyat hayotidagi o`rni kamsitish va huquqqa salbiy baho berish kabilarni ta`kidlab o`tdi. Har qanday ijtimoiy hodisada bo`lgani kabi, huquqiy nigilizmning ham yuzaga kelish sabablari va manbalari bo`lishi, huquqiy nigilizmni yuzaga keltiruvchi manbalardan biri jamiyatdagi kriminogen holat hisoblanadi.

Shuningdek, nigilizm ijtimoiy hodisa sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- umume`tirof etilgan, ob`ektiv qadriyatlarga nisbatan mutlaqo salbiy hamda o`ta tanqidiy munosabatda bo`lish;
- muayyan hodisaga nisbatan bir yoqlama, kelishuvni rad etgan tarzda munosabat bildirish;
- ijobiy dastur bilan bog`liq emasligi;
- buzg`unchilik g`oyalarini o`zida ifodalashi.

Huquqiy nigilizm ijtimoiy nigilizmning ko`rinishlaridan biri bo`lib, mazmunan huquqqa, qonunlarga, normativ tartib-qoidalarga salbiy, inkor qiluvchi, hurmatsizlik bilan munosabatda bo`lishdir.

Huquqiy nigilizm huquqni ijtimoiy qadriyat sifatida tan olmaydi, huquq, qonun va huquqiy tartibotga inkor etuvchi munosabatni hamda huquqning ijtimoiy foydaliligiga ishonchsizlikni namoyon etadi.

Huquqiy nigilizm o`zida uch tarkibiy qismni birlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy xodisadir. Birinchidan, bu davlat va huquqqa nisbatan tanqidiy qarashlarni aks ettiruvchi ijtimoiy-siyosiy fikrlar, nazariy kontseptsiyalar yig`indisidir. Ikkinchidan, bu huquqning jamiyat hayotidagi o`rnini kamsitib, uni

jamiyatdan ajratuvchi hamda huquqning o`rniga boshqa tartibga solish vositasini e`tirof etuvchi ijtimoiy hodisadir. Uchinchidan esa, bu aniq shaxs (sub`ekt)ning huquqiy borliq haqidagi huquqning amaliy va mafkuraviy ahamiyatsizligida ifodalanuvchi, huquqqa salbiy baho berish va uning talablarini bajarishni rad etuvchi tasavvuridan iboratdir.

Ma`ruzada tinglovchilar e`tiboriga havola etilgan ma`ruzalar bo`yicha ishtirokchilar o`zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil ma`lumotlar olishdi.